

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI  
MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI**

«Himoyaga tavsiya etilsin»

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ X.T.Maxamov

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani \_\_\_\_\_ F.E.Ochilov

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2019 y.

5112100-Mehnat ta‘limi ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchisi

**AMINOVA BARNO SALIMOVNAning**

bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

**MEHNAT TA‘LIMI JARAYONIDA KASB TANLASHGA  
YO‘LLASH**

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar**

k.o‘qituvchi A.Ochilov

**QARSHI - 2019**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI**

**MEHNAT TA‘LIMI JARAYONIDA KASB TANLASHGA YO‘LLASH**  
**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: Mehnat ta‘limi yo‘nalishi  
bitiruvchi 4 kurs talabasi  
Aminova Barno Salimovna  
ILMIY RAHBAR: k.o‘qituvchi A.Ochilov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi.

№ \_\_\_\_\_ sonli bayonnoma “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil.

**Qarshi-2019**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**PEDAGOGIKA FAKULTETI**  
**MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI**

«5112100-Mehnat ta‘limi» yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr  
darajasini olish uchun

**MEHNAT TA‘LIMI JARAYONIDA KASB TANLASHGA YO‘LLASH**  
mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bajaruvchi: Aminova Barno Salimovna

Ilmiy rahbar: k.o‘qituvchi A.Ochilov.

Bitiruv malakaviy ishi «Mehnat ta‘limi» kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2019 yil \_\_\_\_ \_\_\_\_\_dagi majlisida muhokama qilindi va  
himoyaga tavsiya etildi (bayonnoma №\_\_\_\_).

Kafedra mudiri: dots. X. Maxamov

Bitiruv malakaviy ishi YaDAK ning 2019 yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_dagi majlisida  
himoya qilindi va \_\_\_\_ ball bilan baholandi (bayonnoma №\_\_\_\_).

YaDAK raisi: \_\_\_\_\_

A‘zolari: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_

**Qarshi-2019**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI**

5112100-Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruvchisi  
**Aminova Barnoning** bitiruv malakaviy ishiga rahbarning

**XULOSASI**

**Bitiruv malakaviy ish mavzusi:** “Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash”.

**Bitiruv makaviy ishning hajmi: 58 bet**

a) yozma izoh qismi: 54 bet

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishda ummkasbiy texnik fanlarni o'qitishda o'qituvchi fanni chuqur o'zlashtirishiga erishish, “Qotishmalar nazariyasi asoslari” mavzusini zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishda mashina va mexanizmlar tuzilishining asosida yotuvchi tabiat qonuniyatlarini ko'ra bilish va amaliy faoliyatda ularni qo'llay bilish masalalariga oid zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashi va shular asosida uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda o'quv jarayoniga tadbiiq etish, ta'limning pedagogik asoslarini ochib berishi hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

**Bitiruv malakaviy ishning yozma izoh, grafik materiallarning tarkibi va bajarilish sifati.** Kirish, mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ilmiy-uslubiy yangiligi, amaliy ahamiyati: 1-bobda muammoning ilmiy asoslari, tamoyillari bayon etilgan. 2-bobda “Qotishmalar nazariyasi asoslari” mavzusini zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish mavzusiga oid uslubiy tavsiyalar va samarali foydalanish metodlari ishlab chiqilgan.

**Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalar, fan texnika yutuqlari va ilg'or tajriba natijalaridan foydalanganligi,** Malakaviy ishni yozishda “Qotishmalar nazariyasi asoslari” mavzusini zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishga oid ilmiy nazariy va uslubiy hamda ilg'or tajriba natijalaridan foydalanilgan.

**Bitiruv malakaviy ishi bahosi (maksimal baho-100)** Malakaviy ish O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining malakaviy ishlarga qo'yiladigan talablarga mos keladi. Ish himoyaga tavsiva etiladi.

**Bitiruv malakaviy ish rahbari:**

**katta o'qituvchi A.O.Ochilov**

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019 yil

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA**  
**TOPSHIRIQ**

**"TASDIQLAYMAN"**

Kafedra mudiri \_\_\_\_\_ dots .X.T.Maxamov  
" \_\_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2018-yil

**Talaba:** Aminova Barno Salimovna

**Ta'limiy yo'nalishi:** 5112100-Mehnat ta'limi

**Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** "Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash"

**Bitiruv malakaviy ishi oldi amaliyot o'tagan joy:** Qarshi shahar 23-umumiy o'rta ta'lim maktabi

**Bitiruv malakaviy ishi raxbari:** Katta o'qituvchi Ochilov Alisher

**Malakaviy ishning maqsadi:** Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarni tahlil qilish va yoritib berishdan iborat.

**Ish rejasi:**

<b>Bitiruv malakaviy ishi bo'limi</b>	<b>Bitiruv malakaviy ishi mazmuni</b>	<b>Bajarish muddati</b>
Kirish	Mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, ilmiy-uslubiy yangiligi, amaliy ahamiyati	Noyabar-dekabr
1-bob	Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashning mazmuni va nazariyasi	Yanvar-fevral
2-bob	Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash tizimini takomillashtirishni metodologik asoslari	Mart-aprel
Ish natijalarini xulosalash	Tajriba-sinov natijalariga asosan xulosalash. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish	Aprel-may
Dastlabki himoyaga tayyorgarlik	Bitiruv malakaviy ishini rasmiylashtirish va himoya qilish	May-iyun

**Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar:**

**a) adabiyot manbalari:** Avazboyeva O.I., Isyanov R.G., Odilboyev X. Mehnat ta'limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995. Davlatov K. Mehnat va kasb ta'limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1992. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH. Mehnat va kasb ta'limi metodikasidan amaliy mashg'ulotlar (Metodik qo'llanma). TDPU, 2002.

**b) qonuniy-me'yoriy xujjatlar:** O'zbekiston Respublikasida ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Uzluksiz ta'lim tizimi

**v) statistika va boshqa ma'lumotlar:** O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha ma'lumotlar

**Tasvirlash materiallari:** Jadval, chizma

**Topshiriq berilgan kun:** 16-Noyabr 2018-yil

**Ishni topshirish muddati:** 15-May 2019-yil

**Ilmiy rahbar:** katta o'qituvchi Ochilov Alisher

**Kafedra mudirining bitiruv ishini himoyaga qo'yish haqidagi xulosasi:**

---

---

---

---

## Mundarija

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>1. BOB. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashning mazmuni va nazariyasi</b>	
1.1. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning tashkiliy-uslubiy masalalari.....	6
1.2. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashning nazariy asoslari.....	13
1.3. O'rta umumta'lim maktablarida mehnat darslarida kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish.....	20
<b>2. BOB. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash tizimini takomillashtirishni metodologik asoslari</b>	
2.1. O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga qo'llaniladigan asosiy vositalar.....	26
2.2. Kasb tanlashga yo'naltirishda o'quvchi shaxsiga individual yondashish metodikasi.....	32
2.3. O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish metodik ta'minoti.....	42
<b>XULOSA .....</b>	<b>57</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>58</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi:** “Mehnat ta’limi jarayonida kasb tanlashga yo‘llash” mavzusida yozilgan ushbu bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi O‘zbekistonda Respublikasida “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlarni amalga oshirishni yuksaltirishda muhim ijtimoiy iqtisodiy ahamiyatdagi vazifa sifatida kasbga yo‘naltirish ishlarini mazmun va sifat jihatdan takomillashtirish hozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etishi bilan izoxlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligiga erishganidan so‘ng ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo‘g‘in hisoblangan umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatida o‘quvchilarni hayotga tayyorlash va kasb tanlashga yo‘naltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtaiy nazaradan o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi.

Kasbga yo‘naltirishdan maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongli ravishda kasbni tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb tanlashga yo‘naltirish orqali, bo‘lajak kasbiy qarorlarini shakllantirishda, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun mustahkam zamin yaratuvchi tashxis xizmatiga ilmiy amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o‘quvchi shaxsni kasbiy yo‘nalitirishda ham individual xususiyatlarini ham xalq xo‘jaligi manfaatlarini nuqtai nazardan mehnat resurslarini to‘laqonli ta‘minlash zaruratini hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarni mehnat ta’limi daraslari jarayonida kasbga yo‘naltirishning ilmiy-amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy-pedagogik asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik-o‘quv qo‘llanmalar, dars

ishlanmalari, ko'rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va meyorlarining belgilanmaganligi, kasb tanlash bo'yicha tezkor aloqaning o'rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalalardan biridir.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** bitiruv malakaviy ishning maqsadi umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimini shakllantirish va rivojlantirishni ahamiyatini o'rganish va taxlil qilish.

Maqadni amalga oshirish yo'lida quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

**Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:** mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning nazariy bazasi to'g'risida asosiy tushunchalar, uning xususiyatlari va prinsiplari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish;

- Mehnat ta'limi jarayonida kasbga tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonini ko'rib chiqishda fundamental yondashuv va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va taxlil qilish;
- Mehnat ta'limi darslarida kasb tanlashga yo'naltirish tizimida qo'llaniladigan asosiy vositalar va ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirishga ta'sir qiladigan omillarni ishda ko'rsatib va izoxlab berish;
- Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish tizimini takomillashtirish va uni ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatib berish.

**Mavzuni o'rganish darajasining qiyosiy bo'yicha tahlili:** Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munnavar qori Abdurashidxonov, Oqiljon Shorofiddinov, A.Avloniyalar va boshqalar yangi maktablar ochib, u yerda ta'lim tarbiyani mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini kushib olib borganlar. N.Krupskaya, D. Davletov, O'.Tolipov N.Saidaxmedov, R SH.Abdullayeva, J.Yo'ldashev, S.Usmonova, S.Abduraxmonov va boshqa ko'plab olimlar ilmiy tatqiqot ishlari olib borganlar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** ishga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan xolda quyidagi faktlar o'rganilib, izohlanib va tahlil qilindi:



- O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning nazariy bazasi to'g'risida asosiy tushunchalar, uning xususiyatlari va prinsiplari bilan tanishildi va o'rganildi;
- O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonini ko'rib chiqishda fundamental yondashuv va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganib chiqilib ularga izox berildi;
- O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tizimida professionalizmni shakllantirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar va ta'lim oluvchilarni kasbga yo'naltirishga ta'sir qiladigan omillar ish jarayonida ko'rsatilib ularga tahlil berildi;
- O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tizimini takomillashtirish va uni ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rni o'rganib chiqildi va mavzuga oid xulosalar berildi.

**Tadqiqot predmeti:** o'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yunaltirish tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga ta'sir etuvchi omillar, qo'llaniladigan vositalar va sifatni oshirish maqsadida olib borilishi lozim bo'lgan vazifalar.

**Tadqiqot obyekti:** o'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tizimini metodik ta'minotini rivojlantirish va takomillashtirish.

**Tadqiqot metodlari:** ushbu bitiruv malakaviy ishda O'zbekiston Respublika Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlari, O'zbekiston respublikasidagi qonun va dasturlar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va sohaga oid adabiyotlar asosida yozilgan.

**Tadqiqotning ilmiy amaliy ahamiyati:** ishning nazariy xulosalari va uning natijasi o'rta umumta'lim maktablarida texnologiya (Mehnat ta'limi) fanini o'qitish jarayonida "Kasb ta'limi", "kasbga yo'naltirish" ishlarining mazmuni va mohiyatini o'rgatish, o'qitish bo'yicha o'quv materiallar sifatida foydalanilishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibi:** mazkur bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlarni o'z ichiga olgan.

Kirish qismida tanlangan va ish olib olib borilayotgan mavzuning dolzarbligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, nazariy metodologik bazasi, yangiligi va amaliy mohiyati o'z aksini topgan.

Birinchi bob, O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirishning ilimiy-nazariy aspektlari va kasb tanlash umumiy tashkiliy masalalari, kasb tanlash tizimining rivojlantirish to'g'risida asosiy tushunchalar, uning xususiyatlari, prinsiplari, hamda kasb tanlashga yo'naltirish tizimini rivojlantirishni takomillashtirish jarayonini ko'rib chiqishda fundamental yondashuv, unga ta'sir etuvchi omillar to'g'risida ma'lumot berildi. Shuningdek ular o'rganilib va tahlil qilindi.

Ikkinchi bob, O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish tizimini takomillashtirishni ta'minlashda metodologik asoslari kasb tanlash ishlarini tashkil etishda qo'llaniladigan asosiy vositalar va ta'lim oluvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga ta'sir qiladigan omillar va uni ta'lim tizimini rivojlanishidagi o'rni o'rganib chiqildi, olingan ma'lumotlar taxlil qilinib, tegishli natijalar chiqarildi.

Xulosada bitiruv ishini tayyorlash jarayonida qo'llanilgan materiallar va ma'lumotlar asosida mavzuga oid tegishli xulosalar va takliflar berildi.

# **1. BOB. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashning mazmuni va nazariyasi**

## **1.1. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning tashkiliy-uslubiy masalalari**

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida tashkil etilayotgan kasb tanlashga yo'naltirish ishlari o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rnini topishlariga katta yordam beradi. Bu jarayonda mintaqaviy kasblarni (hududlardagi aholining turmush darajasi, xalq hunarmandchiligi qanchalik rivojlanganligi va boshqalar) targ'ib qilish bilan birgalikda, o'quvchilarga kasblar to'g'risida umumiy malumot berish, konsultasiyalar o'tkazishga yordam beradi. Shu bilan birgalikda maktablarda mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'naltirish bo'yicha ta'lim muassasalarida pedagogik jamoasining vazifalarini, kasbga yo'naltirish tadbirlarini amalga oshirishda, ta'lim muassasalari jamoalarini hozirgi kunda tashkil etilgan tashxis markazlarini kasbga yo'naltirish xonalari sharoitida o'qituvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar bilan ta'minlashdan iborat.

Mehnat ta'limi jarayonida kasbga yo'naltirish ishlarining ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqishga P.P.Blonskiy, A.S.Makarenko kabi atoqli rus olimlari muhim hissa qo'shganlar. Ular o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlarining psixologik-pedagogik asoslarini yaratish uning keyingi taraqqiyoti uchun sharoit yaratib berdilar. Kasbga yo'naltirish ishlari politexnik ta'lim, mehnat ta'limi va tarbiyasi bilan uzviy aloqadorlikda olib borildi. O'ttizinchi yillarning boshlarida kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish Markaziy laboratoriyasi faol tashkiliy ishlarni olib bordi, 1932 yilga kelib bu turdagi byurolar soni 54 taga yetkazildi. Biroq bu davrdagi kasb tanlashga yo'naltirish ishlari taraqqiyotiga o'quvchilar mehnat ta'limiga bo'lgan e'tiborni susayib borishi salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mehnat ta'limining bekor qilinishi kasbga yo'naltirish ishlarining to'xtab qolishiga olib keldi. 50-yillarning boshlarida kasbga yo'naltirishga bo'lgan e'tibor yana kuchaya boshladi va ma'lum darajadagi tashkiliy-uslubiy yondoshuv yuzaga keldi. Shundan keyingi davrlarda o'quvchilarning qiziqishlari va xalq xo'jaligi ehtiyojlaridan kelib

chiqqan holda ishlab chiqilgan kasb tanlashga yoʻnaltirish ishlari besh yillik rejalar asosida tashkillashtirib borildi.

Oʻzbekiston mustaqillikni qoʻlga kiritgan yildan boshlab taʼlim tizimida tub oʻzgarishlar roʻy bermoqda. "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi natijasida xalq xoʻjaligining malakali mutaxassis kadrlar bilan taminlash tizimi yaratilmoqda. Yuqorida qisqacha xronologik tarzda keltirilgan malumotlarning oʻzi ham yoshlarning kasbga yoʻnaltirishning ahamiyati nechogʻli balandligini koʻrsatib turibdi. Kasb tanlashga yoʻllash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat taʼlimi alohida oʻrinni egallashini esdan chiqarmaslik kerak. Bunga sabab shuki, mehnat taʼlimining mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, balki amaliy jihatdan ham olib boriladi. Maʼlumki, kasb tanlash toʻgʻrisida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqida toʻliq tassavvurga ega boʻlish mumkin boʻladi. Kasb tanlashga yoʻllash ishi butun mehnat taʼlimi davomida olib boriladi, lekin uning vazifalari oʻzining turli bosqichlarida oʻzgarib turadi. Masalan, V-VII sniflarda asosan kasb haqida maʼlumot beriladi. Oʻquvchilar qanday kasblar borligi, uning klassifikasiyasi bilan tanishadilar. Bu kasblarning elementlari oʻquvchilarning ustaxonadagi faoliyati mazmunini tashkil etadi. Bu hol oʻqitishning shu davrida oʻquvchilarni umummehnat tayyorgarlik vazifasiga toʻla mos keladi. VI sinfda va ayniqsa, VII sinfda kasb tanlash toʻgʻrisida maʼlumot berish bilan bir qatorda mehnatda tarbiyalash ishlari ham olib boriladi. Bunga sabab shuki, VII sinfni bitirish arafasida oʻquvchilar boʻlgʻusi mehnat tayyorgarligining soha (yoʻnalishi)ni tanlab olishlari zarur. Har bir soha boʻyicha koʻplab ommaviy kichik mutaxassislar kasblarini oʻz ichiga oladi. Bular ustaxonadagi mashgʻulotlarning mazmuni bilan izchil aloqada boʻlgan kasblar boʻlishi (masalan, metallga ishlov berish texnologiyasiga va yogʻochga ishlov berish texnologiyasiga oid kasblar va shu bilan birga milliy hunarmandchilikka asoslangan kasblarni oʻquvchilarda mehnat taʼlimi jarayonida koʻrsatilib oʻtishi) yoki ular bilan hech qaday aloqador

bo‘lmagan kasblar (chunonchi, suvoqchilik, buyoqchilik va shu kabi qurilish kasblari) bo‘lishi mumkin. Sohani to‘g‘ri tanlagan o‘quvchi keyinchalik o‘ziga shu soha doirasidagi kasbni tanlaydi.

Shundan kelib chiqib, mehnat tayyorgarligining sohasini tanlash ixtiyoriy bo‘lishiga harakat qilish lozim. Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob berish uchun avvalo kasb tanlash erkinligini qanday tushunish lozimligini aniqlab olish zarur. Bizning jamiyatimizda hohlagan kasbni tanlash yo‘lida siyosiy, ijtimoiy, milliy va boshqa xil g‘oyalar yo‘q. Ammo bu huquqdan o‘z o‘rnida foydalana bilish va bunga o‘rgatish darkor. Gap shundaki, u yoki bu kasbga bo‘lgan talab uning e‘tiboriga qarab emas, balki bozor iqtisodiyotining tuzilishiga qarab aniqlanadi. Shuning uchun, xohishimizdan qat’i nazar, obyektiv tarzda kechuvchi ilmiy texnik taraqqiyot bu rejaga o‘z shartlarini kiritadi. Va biz yoshlarni bozor iqtisodiyoti ehtiyojlariga mos keladigan kasblarda ishlashga tayyorlashimiz kerak. Bu o‘ta muhim vazifaning bajarilishini ta‘minlash kasb tanlash erkinligi fuqorolik burchini tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrli ekalligini anglash bilan uyg‘unlashib ketishi lozim. O‘smirlar to‘g‘risida gap ketganda, ular shaxs sifatida endigina shakllanib kelayotganliklarini e‘tiborga olish zarur. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning ma‘lum qismi kichik mutaxassis bo‘lib ishlashni xohlamasliklarini qo‘rsatadi. Buning sababi shundaki, o‘quvchilar kichik mutaxassis kasblarining mazmuni to‘g‘risida to‘g‘ri tasavvurga ega emaslar, jamiyatimizda kichik mutaxassislar qanday e‘zozlanishini yaxshi bilmaydilar. O‘quvchilar bilan aynan mana shu yo‘nalishda ish olib borish kerak, zero davlatimiz manfaatlari o‘rta maktabni bitirganlarning ko‘pchiligini moddiy ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalariga jalb qilishni taqozo etadi. Mazkur holda masala teng qimmatli ommaviy kichik mutaxassislar kasblariga taalluqli ekanligi ishni osonlashtiradi. Teng qimmatli kasblar deganda insonga har tomonlama kamol topish, moddiy farovonlik, jamiyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lishga imkoniyatlar yaratishi jihatidan teng bo‘lgan kasblar tushuniladi. Amalda uchraydigan barcha kasblar bilan o‘quvchilarni tanishtirib chiqishning

imkoni yo‘q, albatta. Lekin ko‘pgina kasblar inson oldiga qator umumiy talablarni qo‘yadi. O‘smirlarni ana shu talablar bilan tanishtirib ular haqidagi tasavvurini kengaytirish mumkin. Masalan, keyingi paytda jismoniy mehnatning ma‘naviy saviyasi ortayotganligi kuzatilmoqda. Aqliy mehnat faoliyatiga quyiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Mehnat jamoasida o‘zini tutishiga nisbatan ham yuqori talablar qo‘yilmokda.

Shuni hisobga olib, kasb tanlashga yo‘llashishini shunday tashkil qilish mumkinki, o‘quvchilar faqat muayyan kasblar to‘g‘risida tasavvur olibgina qolmasdan, mehnat faoliyatiga nisbatan qo‘yiladigan umumiy talab to‘g‘risida ham tasavvurga ega bo‘layotganliklarini anglaydigan bo‘lishsin.

Keyingi yillarda mamlakatimizning umumta‘lim maktablarida kasbga tanlashga yo‘naltirish ishini amalga oshirish sohasida, shuningdek yoshlarni kichik mutaxassislar kasblariga yo‘naltirish yuzasidan maktab, oila va kasb-hunar kollejlari birgalikda ish olib borish yo‘nalishida katta ijobiy tajriba to‘plandi va bu tajriba umumlashtirildi.

Shu munosabat bilan o‘kuvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakillantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash ta‘lim va tarbiyaning hamma bosqichlarida hozirgi maktabning vazifalaridir.

Kasbni to‘g‘ri tanlash - inson turmushida muxim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyat ko‘p jixatdan kasbning qanchalik to‘g‘ri tanlanishiga bog‘lik.

Kasbni to‘g‘ri tanlash har bir maktab o‘quvchisining obyektiv vajlariga, qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo‘lishi uchun uning sohligini, o‘zlashtiringani va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko‘ra ko‘proq qaror topadi va namoyon bo‘ladi.

Odam bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo‘lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, tanlagan kasbiga zo‘r qiziqish bilan qarasa, o‘z

ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holda xar bir shaxs jamiyatga eng ko'p naf keltiradi.

Mana shu aytgan gaplardan kasb tanlashning g'oyat muxim ijtimoiy ahamiyati kelib chiqadi. N.K.Koupskaya fikri bo'yicha kasb-korni erkin tanlash juda katta ahamiyatga ega.

Odam shug'ullanayotgan ishini yaxshi ko'rsa, bundan u xursand bo'ladi, qoniqish hosil kiladi, zo'r tashabbus ko'rsatadi, toliqmay mehnat unumini oshiradi.

Maktab o'kuvchilarining kasb tanlashi ongli zaruriyat bo'lishi va ayni vaktida jamiyat mafaatlari mos bo'lib tushishi, yigit na qizlarning kamolot yo'lida shaxsiy mo'ddaolarini qondirish lozim. Buning uchun yuksak darajada ma'lumotli bo'lish zarur, hozirgi asrimizda bunday ma'lumotsiz fan-texnika ildam taraqqiy etishi mumkin emas.

Umummehnat va maxsus malakalarni, kasbga bo'lgan qiziqishlarini shakillantirishning bunday imkoniyatlari obyektiv zaminga ega bo'lib, voqelikda har kuni amalga oshirilmoqda.

Sanoat tez rivojlanganligi, qishlok xo'jaligini mexanizasiyalash va elektirlashtirish borasida katta qadamlar ko'yilganligi, ilm-fan, texnikani va madaniyatni yuksaltirish soxasidagi muvaffakiyatlar bir tomondan, yoshlarning kizikishlariga va qobiliyatlariga muvofiq, ikkinchi tomondan xalq xo'jaligi talab ehtiyojlariga asosan kasb tanlashlari uchun amaliy jihatdan cheklanmagan imkoniyatlar yaratdi; umumiy ta'lim maktabida mexnat politexnika ta'limi sharoitida kasbga yo'naltirish muammosini ijobiy hal qilish uchun barcha shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Kasbga yo'naltirish o'qvchilarga politexnik ma'lumot berish masalalari bilan, kasb tanlash esa muayyan bilim darajasi bilan chambarchas bog'likdir.

Yosh avlodda mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir. Qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq

mehnatga qiziqib qoladilar: ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunday intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat kiladi.

Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o'rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo'llar faqat mehnatdagina «mohir qo'llar» ga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o'rganib bo'lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur.

N.K.Krupskaya o'z asarlarida mehnat ta'limi berish va kasb tanlashga yo'naltirishning, yoshlarni ishchi kasblarini to'hri tanlashga tayyorlashning siyosiy, xalk xo'jalik, madaniy va pedagogik ahamiyatini aniq belgilab bergan. Bunda u kasb tanlashda odamning xususiyatlarini, tabiiy is'tedodini va uning u yoki bu mehnat faoliyatiga qiziqishini hisobga olishga da'vat etgan edi. Uning fikri bo'yicha maktabda va maktabdan tashqari ish olib borish yo'li bilan yosh avlodimizning umumiy ta'lim va politexnik ong-bilim darajasini ilk yoshdayoq kengaytirish zarurligini bir daqiqa ham yoddan chiqarmasligimiz kerak, shuni esdan chiqarmaslik lozimki, umumiy ta'lim va politexnik saviyaning torligi kasblar tanlash erkinligini cheklab qo'yadi.

Umumiy ta'lim maktablarida, zavod va fabrikalarda, o'quv yurtlarida kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini o'tkazish zaruriyatini turmushning o'zi taqozo etmoqda. Bu narsa qayta qurish yangi marralari yil sayin tobora keng avj oldirilayotgandir. Birgina O'zbekistonning o'zida yaqin kelajakda bir nechta yangi sanoat va qishlok xo'jalik obyektlari paydo bo'ladi va mavjo'dlari kengaytiriladi, bularda mehnat faoliyatining yangi turlari vujudga keltiriladi. Yangi kasblar va mutaxassisliklar - metrosozlar, binokorlar, keng profildagi kasblar - paxtakor - mexanizator, chorvador-operator, yengil va og'ir sanoat eng yangi zamonaviy korxonalar kasblari va bir kancha yangi obyektlardagi kasblar



ommalashib qolgan bo'lib, ular O'zbekistonda xalq xo'jaligi tarmoqlarini belgilab bermoqda. Yangi kasblar va mutaxassisliklar soni yil sayin ko'payib bormoqda.

Bu aytganlarimizdan shunday xulosa kelib chiqadi: o'quvchi tanlagan kasb og'zaki tushunchagina bo'lib qolmasligi o'quvchi o'z qobiliyatlarini yangi kasbda sinab ko'rishi, ushbu kasb to'g'risidagi tushunchasi qanchalik to'g'ri ekanini xolisona tekshirib ko'rishi lozim.

O'z-o'zidan ma'lumki, bunga o'qitishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi, bilimlarni, ilmfan asoslarini, ayniqsa ijtimoiy foydali va unumli mehnat bilan chambarchas bog'langan mehnat politexnik bilimni chuqur va mustahkam egallash natijasidagina erishish mumkin.

Har kaday kasbda eng muximi - uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lgusi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak.

Har bir shaxs har tomonlama kamol topishi lozim, buning uchun maktablarda barcha imkoniyatlar mavjud. Bolalar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma'lumotni ola turib, shu asosda o'zlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashlari mumkin. «Kim bo'lsam ekan?» muammosi «Qanday odam bo'lish kerak» muammosi bilan birgalikda hal qilinishi lozim. Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga oid ishlarni ta'lim yo'llari orqali muttasil va izchillik bilan olib borish kerak.

## **1.2. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llashning nazariy asoslari**

Tabiat va jamiyat hodisalari, ishlab chiqarish jarayonlari ko'pincha shu qadar murakkabki, ularni bir ilm-fan doirasida tavsiflash mumkin emas. Maktabda o'rganilayotgan ko'pgina fakt va qonunlar o'zaro bog'lik holda aniq ruyobga chiqarilgan taqdirdagina o'zlashtirilishi mumkin. Misol uchun kasbga yo'naltirish masalasini olib kuraylik.

Muammoning muhimligi yoshlarni kasbga yunaltirishga oid bir qancha amaliy masalalarni shoshilinch ravishda hal qilishning zarurligi hozirgi vaqtda ko'plab mutaxassislar pedagoglar, psixologlar, vrachlar, iqtisodchilar, sosiologlar va g'oyat xilma-xil sohalarda ishlovchi amaliyotchi xodimlarning e'tiborini o'ziga jalb etdi. Bu borada ko'plab mutaxassislarning ishtirok etishi va ish olib borishi muammoni to'g'ri va kompleks tarzda hal etish uchun zamin va sharoitlar yaratib beradi.

Shu bilan birga bu mutaxassislarning har biri to'la aniq ma'lumot olgan. muaiyan ish tajribasiga ega xodimlardir. Shu boisdan ular kasbga yo'naltirish sohasidagi o'z faoliyatida o'zlariga ma'lum bo'lgan metodlarga, mo'ammoga yondashuv usullariga hamda idrok qilish uslubi va shu kabilarga tayanadilar. Bu esa ba'zan ularda tushunchalarning ayrim atamalaridan foydalanishda ziddiyatlar tug'diribgina qolmay, kasbga yo'naltirish maqsad va vazifalarining qo'yilishida bir qancha amaliy masalalarini tushunib olishda bu borada yakdillikning buzilishiga ham olib kelmoqda. Shu sababdan ham kasbga yo'naltirishning oid bilimlar mazmunining yagona sistemasini hamda kasbga yo'naltirish metodologiyasini ishlab chiqish kasbga yunaltirish sohasida bundan buyon muvaffaqiyatli ish olib borishning muhim shartidir.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish muammosiga oid e'lon qilingan asarlarning tanqidiy tahlili va ommaviy maktablar tajribasini umumlashtirish asosida o'quvchilarning e'tiborini yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish va ularni

kasbga yoʻnaltirishga doir yetarli darajada yaxshi ishlab chiqilmagan bir qancha muammolarga alohida qaratish lozim Bular:

a) yuqori sinflarning oʻquvchilarini ishchi kasblariga hisobga olib, umumtaʼlim maktablari uchun kasbga yoʻnaltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

b) mintaqa sharoitlarini, milliy anʼanalarini hisobga olib, umumtaʼlim maktablari uchun kasbga yoʻnaltirish tadbirlarini ishlab chiqish;

v) kasbga yoʻnaltirish vazifalarini amalga oshirish bilan 5-7; 8-9; 10-11 sinflar ukuvchilarning umumiy mehnat, politexnik yunalishi va kasbiy tayyorgarligi oʻrtasida uzviy alokaning yoʻkligi muammolaridir.

Oʻrta Osiyo respublikalari uchun yetarli darajada nazariy va amaliy jihatdan ishlab chiqilmagan ana shu muammolarni hal qilish kerak buladi. Bu masalalarda mamlakatimiz paxtachilik oʻlkasining mintaqa xususiyatlarini, milliy anʼanalarini va tarixiy tajribasini hisobga olish lozim boʻladi. Ikkinchi tomondan esa fan-texnika taraqqiyotining hozirgi talablari asosida maktab yoshlariga mehnat tarbiyasi berish va ularni ishchi kasblarini egallashga yoʻnaltirish shakl va metodlarini takomillashtirishniig yangi yoʻllarini qidirishga toʻgʻri keladi.

Kasbga yoʻnaltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim oʻrin tutadi. Bular orasida xalq xoʻjaligini rivojlantirish va kadr muammolari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yoʻnaltirish jihatlari bilan oʻzaro bohliq tarzda talabalarning mustaqil mashgʻulotlarida koʻrib chiqishi tavsiya etiladi.

Yosh alodni hayotga, mehnatga tayyorlash - gʻoyat muhim vazifadir. Shu boisdan yoshlarning kasb tanlash muammosi oʻrta umumtaʼlim maktabi ishida katta oʻrin tutadi. «Kim boʻlsam ekan?» degan savol har bir yigit va qiz uchun eng asosiy muammolardan biridir. Odamning shundan keyingi butun hayoti ana shu muammoni hal qilishga bohliq. Kasbni tuhri tanlash mehnatda va ijtimoiy faoliyatda eng yuksak koʻrsatkichlarga erishishga yordam beradi, mehnat jarayonida va uning natijalaridan qoniqish esa ijodkorlikni eng koʻp namoyon etish, eng yaxshi xissiy kayfiyatda boʻlish, tanho bir kishining ham, umuman

jamiyatning ham barcha hayotiy rejalarini bir muncha to'la amalga oshirish imkonini beradi.

Jamiyat hamma zamonlarda yosh avlodga ijtimoiy va kasbiy tajribani berish to'g'risida g'amxo'rlik qilib keldi. Insoniyat yashashining ilk davrlarida bu tajriba meros bo'lib qolar, avloddan - avlodga o'tar edi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan odamga nisbatan qo'yilgan talablar ham oshdi, bu esa turli kasblarda ishlash uchun xodimlarni tanlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish zarurligini taqozo etdi.

Hozirgi vaqtda, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sharoitida maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishning muhimligi ancha oshdi. Bir tomondan - ishlab chiqarishni murakkablashtirayotgan xilma-xil kasblar va mutaxassisliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan - bir qator barqaror shaxsiy xususiyatlari bilan ajralib turgan odamlarning mavjudligi kasblarni, o'quv yurtlarini tanlashda, kadrlarni ish o'rinlariga joylashtirishda va qayta joylashtirishda ana shu omillarni, umuman inson omilini hisobga olishni qat'iy talab kiladi.

Iqtisodiy islohot va umuman qayta qurish insonni faol ravishda birinchi o'ringa chiqarib qo'yimoqda, Ijtimoiy adolat odam o'z shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishga ko'prok e'tibor berilishini taqozo qilmoqda. Bu vazifani hal qilishda shaxsiy manfaatlar va jamiyatning kadrlarga bo'lgan talab-extiyohlari birligida yoshlarni erkin va ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashning ilmiy asoslangan sistemasi bo'lmish kasb tanlashga yo'naltirishga muhim o'rin ajratilmoqda.

Yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash masalasiga yoshlarni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu ish shaxsni g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnatsevarlik, aqliy, estetik va jismoniy jihatdan kamol toptirish bilan, ya'ni butun ta'lim-tarbiya jarayoni, uning butun kompleksi bilan uzviy birlikda va hamjihatlikda amalga oshiriladi.

Xalq maorifi organlarining shu sohadagi bir qator qarorlarida ta'kidlab o'tilganidek, vujudga keltirilayotgan kasbga yo'naltirishning davlat sistemasida umumiy ta'lim maktabiga, o'qituvchiga yetakchi o'rin ajratilmoqda. Ayni o'qituvchi mehnat ahliga bo'lgan zamonaviy talablarni hisobga olib, umummehnat va kasbiy mahorat hamda malakalarni egallashdagina emas, balki kasbni to'g'ri tanlashda ham o'smirlarga yordam berish lozim. Kasb to'g'ri tanlanganda ular o'z qobiliyatlari va qiziqishlarini yaxshiroq ro'yobga chiqarishlari hamda jamiyatga ko'proq naf keltirishlari mumkin.

Ilk kasbga yo'naltirish (I-IV sinflar) bolalarni mehnatga tayyorlashdan, yosh xususiyatlarini hisobga olib, ularni kasblar, mehnat olami bilan tanishtirishdan, ularda o'z mehnati bilan boshqalarga naf keltirish ehtiyojini shakllantirishdan iborat. Bunga esa bolalarni qo'ldan keladigan ijtimoiy - foydali mehnatga o'quv va o'yin faoliyatining har xil turlariga jalb etish yo'li bilan erishish mumkin.

O'rta bo'g'inda (V-VII sinflar) maktab o'qituvchilari ijtimoiy-foydali, unumli mehnatga kirishadilar, ularda kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari, mehnat faoliyatining konkret sohasiga bo'lgan qiziqish shakllanadi.

Navbatdagi boskichda (VIII-IXsinflar) o'quvchilarda sistemalashtirilgan bilimlar, kasblar olamida mo'ljal ola bilish mahorati, konkret kasbga bo'lgan qiziqish shakllanishi lozim. X-XI sinflarda asosiy e'tibor yuqori sinf o'quvchilarini moddiy ishlab chiqarish sahasidagi mehnatga tayyorlash ijtimoiy-kasbiy jihatdan bir maqsadni ko'zda tutganligiga qaratilishi kerak.

Kasbga yunaltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yunaltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy xududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan istiqboldagi extiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining mehnat ta'limi darslarida yunaltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oliy ta'lim, kasb-hunar kollejlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari tizimida milliylikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Jumladan,

bo'lg'usi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash jarayonida o'qitiladigan milliylikka mos bo'lgan predmet va kurs fanlarini «Yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishiga oid o'ymakorlik, me'morlik, o'yma naqshlar, sandiqchilik, «Materiallarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishi bo'yicha chilangarlik, zargarlik, pichoqchilik, «Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishidagi kashtachilik, zardo'zlik, zamindo'zlik, guldo'zlik kabi hunarmandchilikka hamda o'zbek milliy taomlariga taa'lluqli darslarni xalq milliy qadriyatlarini asosida o'qitishni tashkil qilish lozim bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda tayyorlov o'quv rejalarini bir qadar milliylikka asoslangan darslari bilan boyitish zarur bo'ladi. Ushbu qo'yilgan zaruriyat tufayli yuzaga kelgan muammolarni har bir yo'nalishni mohiyatidan kelib chiqqan holda yechish kerak bo'ladi. Mehnat ta'limining hozirgacha mavjud bo'lgan texnik, qishloq xo'jalik va xizmat ko'rsatish mehnati ta'limiga tegishli bo'lgan gazlamaga, metallga ishlov berish texnologiyasi va qishloq xo'jalik hamda pazandachilik asoslari yo'nalishlari bo'yicha o'qitilishi zarur bo'lgan dars materiallarini DTS asosida ilmiy tahlilga suyanib tuzilgan dastur bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

- kasb tanlashning rivojlanishi va tarixiy taraqqiyoti bo'yicha o'quvchilarga boshlang'ich tushunchalar berish;

- o'quvchilarga mehnat ta'limi jarayonida olib boriladigan kasbni tanlashga yo'llash ishlarida milliy hunarmandchilikning mazmuni, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

- o'quvchilarga ta'lim jarayonida olib boriladigan kasbni tanlashga yo'llash ishlarida milliy hunarmandchilikning mazmuni, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish;

- I - IV sinflarda o'quvchilarni mehnat ta'limi dasturidagi milliy hunarmandchilik kasblari bilan tanishtirish;

- V - IX sinflardagi mehnat darslarida amaliy mashg'ulotlar davomida o'quvchilarni milliy hunarmandchilik kasblariga yo'llash;

- o'quvchilarni xalq hunarmandchiligiga o'rgatish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish va ularda kasbiy tushunchalarni shakllantirish.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasbga tanlashga yo'natirishda umumiy o'rta ta'lim maktablarining mehnat ta'limi mashg'ulotlarida pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilar tomonidan oliy ta'lim tizimida olingan bilimlari bo'yicha integrasiyalangan holda darslarni olib boriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv reja va dasturlari tahlili shuni ko'rsatdiki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarga pazandachilik, tikuvchilik va ta'mirlash ishlaridan, ya'ni bir necha fanlar bo'yicha integrasiyalangan holda – maishiy xizmat ko'rsatish fanidan bilimlar beriladi. Bu bilimlarning barchasidan pedagogika oliy o'quv yurtining kasb ta'limi fakulteti "Mehnat ta'limi" yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlaridan "Tikuvchilik jarayoni", "Tikuvchilik jihozlari va ularga qarov", "Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish", "Xalq ijodkorligi va dizayn", "Ovqat tayyorlash jarayoni" hamda "Ovqatlanish fiziologiyasi"dan ta'lim beriladi. Bu fanlardan olingan bilimlar asosida bo'lajak o'qituvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida maishiy xizmat ko'rsatish fani jarayonida o'quvchilarga ta'lim beradilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar shaxsini rivojlantirish ularning chuqur bilimlarini va axloqiy sifatlarini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri — ta'lim muassasasidagi ta'lim mazmuni hisoblanadi. Ta'lim mazmunini sifatli takomillashtirishni pedagogikada bugungi kunda yangi yo'nalish — pedagogik innovasiyasiz amalga oshirish mumkin emas. Kasb-hunar kollejlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik innovasiyalar pedagogik texnologiyalar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

Pedagogik texnologiya o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir qilishni tashkil etish bo'yicha kasbiy ahamiyatga molik malakalar tizimini aniqlab beradi. Pedagogik texnologiya o'quvchilarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasiga, ularning axborotlar bilan tanishganlik va o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy tayyorgarligiga moslashgan bo'lishi lozim.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tikuvchilik sohasiga oid fanlarda oʻqitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning oʻzlashtirilishini, harakatlarning reflektivligini aks ettiradi va kasb tanlashga boʻlgan qiziqishlarini shakllantiradi. Chunki tikuvchilik sohasiga oid fanlarida buyumning chizmasini chizish uchun matematika, chizmachilik hamda buyumni bichish va tikish jarayonida esa iqtisodiyot, rasm, estetik tarbiya fanlaridan olingan bilimlar oʻquvchida mujassamlashadi, yaʼni boshqa fanlardan olingan bilimlar asosida integrasiyalab mashgʻulotlar olib boriladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tikuvchilik sohasiga oid darslarida nazariy va amaliy mashgʻulotlarni integrasiyalash orqali yangi pedagogik texnologiya asosida bilimlar berish metodlaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda dars jarayonida oʻqituvchi va oʻquvchilarning faol ishtiroki asosida darsda koʻzlangan maqsadga erishiladi.



### **1.3. O'rta umumta'lim maktablarida mehnat darslarida kasbga yo'naltirish tizimini rivojlantirish**

O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga oid innovasion yechimlarni ishlab chiqish nafaqat pedagogik fanini, balki shu bilan birgalikda butun jamiyatimizni ham ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi o'quvchilarning umumta'lim tayyorgarligi bilan birga ularning umumkasbiy hamda ijodkorlik ko'nikmalariga ham yuqori talablar qo'yimoqda.

Ijodkor shaxs turli sohalarga oid bilimlarni egallaganligi hamda ularni o'zaro yangi bog'lanishlarda qo'llay olishi bilan ajralib turadi. Bunday shaxslar bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llashda maqsadga erishishning nafaqat maqsadini, balki unga erishishning motivlari hamda usullarini ham to'la idrok qilgan holda yondashadilar.

Bilish hamda mehnat operasiyalarini o'rganishga oid faoliyat turlarini o'ziga xos, yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri sanaladi. Jumladan, integrativ yondashuv asosida o'quvchilar ijodiy faolligini oshirishga mehnat ta'limini takomillashtirishda yangi istiqbollarni ochib beradi.

Mehnat ta'limi jarayonida zamonaviy materiallar, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlarni rivojlantirish hamda xalq hunarmandchiligini taraqqiy ettirishning yangi yo'nalishlarini integrativ yondashuv asosida amalga oshirilishi ko'p jihatdan o'quvchilar ijodiy faolligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mehnat ta'limini integrativ yondashuv asosida tashkil qilishda o'quvchilarda texnika vositalarining ishlash xususiyatlari, texnika va sanoat texnologiyasining taraqqiy etish istiqbollari, ularni loyihalash muammolari haqida tizimli tushunchalar shakllanadi. O'quvchilar o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni yangi vaziyatlarda qo'llash asosida ijodiy-texnik topshiriqlarni yechish usullarini egallab boradilar. Fan asoslarini egallashda tarkib topgan tahlil qilish, umumlashtirish, qiyoslash, tasniflash va tizimlashga oid ko'nikmalar o'quvchilarni

yangi texnika va texnologiyalar asoslarini o'zlashtirish orqali ixtirochilik darajasidagi ijodiy yechimlarni ishlab chiqishga tayyorlab boradi.

Mehnat va kasb ta'limini fanlar bilan gorizontal integrasiyalash o'quvchilarga buyumlarni tayyorlash va ularga ishlov berishda kechadigan fizik, kimyoviy jarayonlar bilan bog'liq ravishda qanday asbob va moslamalardan foydalanishni chuqurroq anglash imkonini beradi. Mehnat obyektiga ishlov berish alohida operatsiya emas, balki ko'p qirrali jarayon ekanligi, ularni bajarishda o'ziga yutuq va kamchiliklar mavjudligi, o'quvchini yangi yechimlarni ishlab chiqish bilan bog'liq muammoli vaziyatga olib keladi.

O'quvchilarning turli buyumlarga ishlov berishdagi umumiy jihatlarni aniqlashlari, mehnat tajribasini yangi, o'zgaruvchan vaziyatlarga tatbiq etishlari asosida ularda ish usullarini bajarish bilan bog'liq harakatchanlik, moslashuvchanlik sifatleri shakllanadi. Bu esa yuqoridagi kabi yuzaga kelgan yangi, muammoli vaziyatlarda ham o'quvchida shakllangan umumlashgan ko'nikmalar asosida rasional yechimni topa olish imkonini beradi. O'quvchilar tayyorlanadigan buyum materiali, uning konstruksiyasi, tayyorlanish usuli, foydalaniladigan asbob-uskunalarni tanlashga tanqidiy yondashishga o'rganadilar. Hal etiladigan o'quv masalalariga tanqidiy yondashish, muammoli vaziyatlarni hal etishdagi jur'atlilik o'quvchilar ijodiy faolligini ta'minlash uchun yetarli asoslarning yaratilishini ta'minlaydi.

«2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi» doirasida umumiy o'rta ta'lim fanlari qatorida mehnat ta'limining Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturi ham takomillashtirib borilmoqda. Mehnat ta'limining yangilangan mazmuni o'quvchilarni jahon fani va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlari darajasida ijodiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlarini ta'minlashga qaratilgan. Ta'limning modernizasiyalangan mazmuni o'quvchilar bilish faolligini oshirish hamda ijodkorligini rivojlantirish bilan bog'liq sifatlarni, shuningdek muammolarni vaziyatlarni anglab yetish va uni aniq tavsiflay olish, uni o'rganish va hal etish rejasini ishlab chiqish, aniqlangan yechimning samaradorlik darajasini tekshirib ko'rish bilan bog'liq ko'nikmalarni

shakllantirish bilan bog‘liq yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Mehnat va kasb ta‘limini amalga oshirishda yangilangan ta‘lim mazmunini amalga oshirish ko‘p jihatdan ta‘limning mos ravishda innovasion metod va shakllarini ishlab chiqish va joriy etilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Ijodkorlik faoliyatini tashkil qilishda shaxs harakatlari motivasiyasi hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. O‘z navbatida mehnat ta‘limi jarayonida o‘quvchilar motivasiyasiga mehnat ta‘limi mazmuni, unda texnika va texnologiyalar, mehnat usullarining zamonaviy taraqqiyot darajasining aks ettirilganligi, muammoli o‘quv topshiriqlarining rejalashtirilganligi jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchining o‘z mehnati natijalari salmog‘ini anglab yetishi unda qoniqish hamda amaliy ahamiyatga ega vazifalar yechimini topishga aloqadorlik hissini tarbiyalaydi. Demak, fanlararo integrasiya va o‘quvchilar mehnat faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi ular hissiyotiga kuchli ta‘sir etuvchi omil bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, mehnat topshiriqlarini bajarishning ijtimoiy ahamiyatini anglab yetish o‘quvchining mustaqil shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini belgilashida qat‘iyatlilikni ta‘minlaydi.

Kasbga yunaltirish ishi – butun ta‘lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u darslarda bo‘lganidek, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda ham turli shakllarda amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha “Respublika o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Tashxis Markazi” bosh muassasa hisoblanadi. Markaz O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi tizimidagi o‘quvchi-yoshlarning kasb-hunarga yo‘naltirish xizmatiga rahbarlik qiluvchi bo‘g‘in hisoblanadi va O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va qonunlarda ko‘zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida ularning o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog‘liqlariga mos bo‘lgan kasb-hunarlarini tanlashlariga ko‘maklashadi.

O‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablari muhim o‘rin tutadi. Bu ishga rahbarlik qilish, uni nazorat etish va muvofiqlashtirish maktab kasbga yo‘naltirish kengashi tomonidan ta‘minlanadi. Kengashning har bir a‘zosi kasbga yo‘naltirish yuzasidan aniq ish

sohasiga javob beradi. Masalan, ilmiy bo‘lim mudiri o‘quv jarayonidagi kasbga yo‘naltirish ishlariga, ma’naviy-ma’rifiy ishlar tashkilotchisi mazkur hududdagi kasblarga o‘quvchilarni yo‘naltirish ishlariga javob beradi. Maktab psixologi hamda sinf rahbarlari o‘quvchilar bilan umumiy va yakka tartibda kasbga yo‘naltirish ishlarini o‘tkazadilar. Maktab ma’muriya-ti va ota-onalar o‘quvchilarning kasbga yo‘naltirilishini nazorat qiladilar.

Kasb tanlashga yo‘llash kengashi ta’limning birinchi bosqichini, ya’ni, IX-sinfni bitirayotgan o‘quvchilarning akademik liseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni davom ettirish muammosini oson hal qilishda o‘quvchilarga va ularning ota-onalariga yaqindan yordam beradi.

Agar kasb to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi, bu esa inson uchun ham, jamiyat uchun ham foydalidir. Mutaxassislarining ta’kidlashicha, kishining o‘zi xohlagan kasbni erkin tanlashi nihoyatda katta ahamiyatga ega.

Inson sevgan ishi bilan shug‘ullansa, u bu ishdan xursand bo‘lishi, qanoat hosil qilishi, ko‘p tashabbus ko‘rsatishi, charchamay g‘ayrat bilan ishlashi mumkin. Shu sababdan kasb tanlash – jiddiy va mas’uliyatli ishdir. O‘z hayot yo‘lini qat’iy belgilab olish – oson ish emas. Buning uchun uzoq vaqt, maxsus tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Yoshlarning kasb-hunarga layoqatini o‘rganish uchun ularning aqliy, jismoniy qobiliyatlarini bilish, malaka va ko‘nikmalarini o‘rganish lozim.

Kasb-hunarga yo‘naltirish – bu o‘sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug‘ma layoqatini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishdir. Kasbga yo‘naltirish – jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda tarbiyalanuv-chiga ma’lum bir kasb-hunar o‘rgatishning ma’rifiy jarayoni hisoblanadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunining 13-moddasida “kasb-hunar kolleji – o‘quvchilarining kasb-hunarga moyilligi, mahorati va malakasini chuqur rivojlantirishni tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir”, – deb ta’kidlanganini aytib o‘tish joiz.

Yoshlarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ular tomonidan kasb-hunarni o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, persektiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak darajada bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishiga e'tibor qaratishlari, to'garaklar, yordamchi kurslarni oqilona uyushtirishlari, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar, suhbatlar, munozaralar o'tkazishlari, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalarini tashkil qilishlari zarur.

Kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Mehnat ta'limini turmush bilan bog'lash, uyg'unlashtirish, o'quvchilarning individual psixologik, yosh davrlari xususiyatlari, texnik qobiliyatlari, intellektual darajalari va imkoniyatlarini hisobga olish ijobiy samara beradi. Chunki har bir kasb-hunar shaxsdan irodaviy zo'r berishni, aqliy jiddiylikni va sinovlarga bardosh bera olishlikni talab etadi. Kasbga yo'naltirishda turli kasblar, ularga qo'yiladigan talablar, bu kasbni qayerda egallashlari mumkinligi to'g'risida o'quvchilarga ma'lumot berish katta ahamiyatga ega. Shu o'rinda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy nazariy va amaliy aspektlari sifatida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

- kasb faoliyatining barcha tomonlari to'g'risida chuqur bilimlarning shakllanishi, shu bilimlarga tayangan holda ta'lim olishni, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va buning aksi bo'lgan amaliyotning nazariyaga ko'chirish yo'llarini o'rganish;

- kasbga yo'naltirishning amaliy aspekti esa egallangan bilimlarni hayotiy faoliyatning ma'lum bir sohasida qo'llashni o'rganish. Bu esa, o'z navbatida, yoshlarni biror kasbni tanlashga ongli munosabatda bo'lishga tayyorlaydi. O'quvchilar kasblar to'g'risidagi ma'lumotlarni, bilimlarni faqat maktabda emas, balki ommaviy axborot vositalaridan, tanishlari, qarindoshlaridan ham bilib oladilar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda yoshlarni kasbga yo'naltirishda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- o‘quvchilarning faolligi, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezguniyatlarini, xususan kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini vaqtida aniqlash;

- o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash;

- kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha ularning aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab kasbga yo‘llash;

- ota-onalar bilan mustahkam aloqa o‘rnatish;

- kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maslahatlar uyushtirish lozim bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish – yoshlarga kelajakda o‘z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish – texnik tadbirlarning asoslangan tizimi hisoblanadi. Yoshlar mehnatining mazmuni respublikamiz oldida turgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy vazifalar, viloyat va tumanlardagi kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quv yurtlarining ichki imkoniyatlari va talablari asosida belgilanadi.

## **2. BOB. Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga yo'llash tizimini takomillashtirishni metodolgik asoslari**

### **2.1.O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlashga qo'llaniladigan asosiy vositalar**

Har bir zamonaviy o'qitish vositalarining pedagogik texnologiyasiga kirish va o'quvchilarni mehnat ta'limi darslarida kasb tanlashga yo'llash bo'yicha ishlab chiqilgan u yoki bu o'qitish vositalarini o'z ichiga oladi.

O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilarni mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlash uchun o'quvchi o'z imkoniyatlarini baholay olish ko'nikmasiga, ya'ni aqli, qiziqishi har xil kasblar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborot va yangiliklardan xabardor bo'lib borishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida "Ta'lim to'g'risida"-gi qonunini "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni amalga oshirish va Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyuldagi «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 372-sonli qaroriga asosan o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis samaradorligini oshirish, ularni psixologik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish, amalga tatbiq etish maqsadida Xalq ta'limi vazirligining 2006 yil 17 martda «O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis Markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to'g'risida»gi 60-sonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o'quv meyoriy hujjatlarini yangi tahriri ishlab chiqildi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog xodimlar hamda aholi o'rtasida (mahalla, ot-onalar, ishlab chiqarish korxonalarini) hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bu ishlarning zamirida, o'quvchi yoshlarni kasbiy qobiliyati va layoqatini aniqlash

asosida ta'limning keyingi turi va bosqichiga yo'naltirish, kasbiy qarorlarini shakllantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ularni to'g'ri kasb-hunar tanlashlarini to'laqonli yo'lga qo'yish alohida ahamiyatga egadir.


O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakllantirish – bu o'quvchi-yoshlarda ta'lim-tarbiya jarayonida o'zlashtirilgan nazariy bilimlarining amaliyotda malakali mutaxassislar ko'magida, kasbiy qiziqish va layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatleri (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hokazo)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb-hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli va indevedual shug'ullanishni talab etadigan jarayon hisoblanadi. Uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obyektiv va subyektiv omillardan unumli foydalana olish ham o'quvchilarda kasbhunarni to'g'ri tanlashlarishga hissa qo'shadi.

Kasb-hunarga yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan texnologik yondoshuv – bu o'quvchi – yoshlar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy kasbiy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakaga aylantirish, ularda faol kasbiy yo'naltirishni tashkil etish tajribasini yuzaga keltirish hamda kasbiy qobiliyat va moyilliklari asosida kasbiy qarorlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish majmui bo'lib xizmat qiladi. U quyidagi tarkibiy tuzilmaga asoslanadi.

- 1) odam o'zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo'qligi;
- 2) hayot yo'lini tanlagan chog'da u nimalarga amal qilishi lozimligi;
- 3) uni o'qitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, ya'ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g'oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko'rib chiqish kerak.
- 4) odam o'zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo'qligi;
- 5) hayot yo'lini tanlagan chog'da u nimalarga amal qilishi lozimligi;



6) uni o'qitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, ya'ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g'oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko'rib chiqish kerak.



### **1-rasm Kasb tanlashga yo'llash vositalari**

#### **Kasbga yo'naluvchi o'quvchi faoliyati:**

- Faoliyat ko'nikma va malakasini o'zlashtirilishi
- Faoliyatni tashkil etish
- Faoliyatni nazorat qilish
- Natijalarni baholash

Kasb tanlashda o'qituvchi tomonidan amalga oshirishladigan vositalar:


- Kasbiy yo'nalishni aniqlab berish
- Kasb tanlashga boshqarish
- Maslahat berish
- Nazorat qilish
- Tavsiyanoma berish

Keltirilgan tuzilma mohiyatidan anglanadiki, o'quvchilarni bo'lajak kasbiy shakllantirishni qaro topishiga ijodiy yondoshuv asosida tashkil etish birinchi navbatda muayyan kasbiy mavzu bo'yicha kompyuterda programmalashtirilgan dars uyushtirilishi. Nazarda tutilgan darsning o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, o'quvchilarni ta'limni keyingi turi va bosqichiga ongli ravishda to'g'ri jalb etish hamda kelajagi haqida tasavvur hosil qilish, ushbu maqsadga erishish imkoniyatini berish uchun ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan vazifalarning qat'iy, aniq va ravshan belgilab olinishi, dars mazmuni (ssenariysi)ning puxta ishlab chiqilishi, shakllantirilgan mazmun-mohiyatini to'laqonli ochib berishga xizmat qiluvchi maqbul shakl, metod va vositalarning to'g'ri tanlanishini taqazo etadi. Ikkinchidan, dars jarayonining asosiy subyekti sifati kasb-hunarga yo'naluvchining shaxsi namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'tkazilayotgan darsning umumiy natijasiga mas'ullik kasbga yo'naluvchi va amaliyotchi psixologlar zimmasiga yuklanishi darkor.

Shunday sharoitdagina ular shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etish, o'z fikrini erkin ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Zero, kasbiy pedagogik texnologiya (kasblarni kompyuterda programmalashtirilgan versiya)larining afzalligi o'sib kelayotgan yosh avlodning mustaqil fikr egasi, erkin, shuningdek kelajagi haqida aniq tasavvurga ega shaxs bo'lib tarbiyalanishlarini ta'minlashga yo'naltirilganligidadir.

Kasb-hunarga yo'naltiruvchi (o'quvchi)ning roli ushbu sharoitda o'quvchilar faoliyati bo'lajak kasbiy shakllantirishini qaror toptirishi, ma'lum yo'nalishga solishi ularning kasbiy yo'nalishi, qobiliyat va moyilliklarini to'g'ri boshqarish, zarur o'rinlarda maslahat berishdan iborat bo'lib, u eng avvalo, o'quvchilarni kelajakda tanlagan kasblarini fidoiylari, ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri, to'liq qamrab olish ishiga mas'uldir.


O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlash jaraynida o'quvchilarning xoxish istaklari va qiziqishlarini orttirish maqsadida kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish muhim ahamiyatga ega.



**Rasm 2. Kasblar to'g'risida ma'lumotlar bazasini sxematik ko'rinishi**

Demak mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda ta'lim vositalaridan samarali foydalanib uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yunaltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy xududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan istiqboldagi extiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining mehnat ta'limi darslarida yunaltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oliy ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktablari tizimida milliylikka asoslangan o'quv jarayonini tashkil qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Jumladan, bo'lg'usi mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini tayyorlash jarayonida o'qitiladigan milliylikka mos bo'lgan predmet va kurs fanlarini «Yog'ochlarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishiga oid o'ymakorlik, me'morlik, o'yma naqshlar, sandiqchilik, «Materiallarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishi bo'yicha chilangarlik, zargarlik, pichoqchilik, «Gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi» yo'nalishidagi kashtachilik, zardo'zlik, zamindo'zlik, guldo'zlik kabi hunarmandchilikka hamda o'zbek milliy taomlariga taa'lluqli darslarni xalq milliy qadriyatlariga asosida o'qitishni tashkil qilish lozim bo'ladi.

Kasb avvalam bor, inson qiziqishi, uning moyilligi, qobiliyati, salomatligi, yaroqliligi va ota-onalarni ihtiyoriga bog'liqdir. Shu bois yuqorida keltirilgan har bir faktorlarni alohida ko'rib chiqamiz. Qiziqish-odamning u yoki bu predmetga qaratilgan faol bilish faoliyati tushuniladi. Kasb tanlashga nisbatan olganda qiziqishlar-bu odamning muayyan mehnat sohasiga ijobiy munosabati, uning bilishiga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir.



**Rasm 3. Odam qiziqishi quyidagi ketma-ketlikda rivojlanadi.**

Bunday qiziqishlar o'sib, maylga-kishining muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib, doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borish uchun intilishga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda tayyorlov o'quv rejalarini bir qadar milliylikka asoslangan darslari bilan boyitish zarur bo'ladi. Ushbu qo'yilgan zaruriyat tufayli yuzaga kelgan muammolarni har bir yo'nalishni mohiyatidan kelib chiqqan holda yechish kerak bo'ladi. Mehnat ta'limining hozirgacha mavjud bo'lgan texnik, qishloq xo'jalik va xizmat ko'rsatish mehnati ta'limiga tegishli bo'lgan gazlamaga, metallga ishlov berish texnologiyasi va qishloq xo'jalik hamda pazandachilik asoslari yo'nalishlari bo'yicha o'qitilishi zarur bo'lgan dars materiallarini DTS asosida ilmiy tahlilga suyanib tuzilgan dastur bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir

## **2.2. Kasb tanlashga yo‘naltirishda o‘quvchi shaxsiga individual yondoshish metodikasi**

Individual mustaqil ishlar kasbga yo‘naltiruvchi mehnat o‘qituvchilari, maktab psixologi va sinf rahbarlarining kasb tanlash masalalari yuzasidan metodik va psixologik adabiyotlarni, shuningdek kasbga yo‘naltiruvchi ekskursiyalar tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu maqsadda o‘quv yilining boshida butun yilga mo‘ljallangan shaxsiy reja tuzib chiqadilar.

Kasbga yo‘naltirishda o‘quv materialini mazmuni fan va texnika taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak. Bundan tashqari o‘quvchilarni aqliy va jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak. O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini turli anketa savollari va testlar yordamida ham aniqlasa bo‘ladi. Quyida H.F.Rashidov, SH.T.Ergashev hamda S.Boltaboyevlar tomonidan taklif qilingan o‘quvchilarni kasbiy yo‘nalganligini aniqlash metodikasini e‘tiboringizga havola etamiz.

Ushbu metodikaga ko‘ra sizga turli kasblar va mashg‘ulotlarga oid savollar havola etiladi. Savollar tartiblangan bo‘lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga mos keladi. Siz o‘z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bergan javobingizni 1,2,3 yoki 4 ball bilan baholashingiz lozim bo‘ladi. Qo‘yiladigan ballar quyidagicha izohlanadi:

- Umuman qiziqarli emas - 1 ball;
- Unchalik qiziqarli emas - 2 ball;
- Qiziqarli - 3 ball;
- Juda qiziqarli - 4 ball.

Savollar ichida sizga notanish bo‘lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda siz “ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?” degan savolga taxminan javob berishingiz lozim bo‘ladi. Uzoq o‘ylamang. Ko‘proq hayolingizga kelgan dastlabki fikrlashingizni javob varaqasiga tushiring.

## **Menga yoqadi:**

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash.
2. Metroda sayr qilish.
3. Radiohavaskorlik.
4. Binolar maketini tayyorlash.
5. Suv o‘tkazgichni tuzatish.
6. Rivojlanishi sust bolalarga yordam berish.
7. Traktorlarga texnik xizmat ko‘rsatish.
8. Bolalarni maktabga tayyorlash.
9. Film ko‘rish.
10. Pul, foyda va zararni hisoblash.
11. Radio-teleapparaturani sozlash.
12. Velosiped tuzatish.
13. Parashyut bilan sakrash.
14. Kompyuterda ishlash.
15. Rangli rasm solish.
16. Gaz plitalarini tuzatish.
17. Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko‘rsatish.
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlar kavlash.
19. Bolalar bilan ishlash.
20. Kuy chalish.
21. Jamoat tartibini saqlash.
22. Oziq-ovqatlar bezash, garnirlar tayyorlash.
23. Mashinalarni “kavlashtirish”.
24. Avtobus haydash.
25. Radiodetallarni almashtirish.
26. g‘isht terish.
27. Obodonlashtirish.
28. Dorishunoslik.
29. O‘rmon kesish, daraxtlarni tartibga solish.
30. To‘garak ishini tashkil qilish.

31. Raqsga tushish.
32. Aksiyalar bozorini kuzatish.
33. Ko'pchilik uchun taom tayyorlash.
34. Metallarni biriktirish.
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko'rsatish.
36. Xovliga chiroq tushirish.
37. Yog'ochga ishlov berish.
38. Rezba qirqish.
39. Bemorlarga yordam ko'rsatish.
40. Mevali ko'chatlar yetishtirish.
41. Bolalarga kurash usullarini o'rgatish.
42. Ashula aytish.
43. Tejamkorlik bo'yicha maslahatlar berish.
44. Xaridni rejalashtirish.
45. Ob-huvoni oldindan aniqlash.
46. Ralli musobaqalarida qatnashish.
47. O't o'chirish.
48. Metallni payvandlash.
49. Aholini suv bilan ta'minlash.
50. Doya-enaga faoliyati.
51. Yerga ishlov berish.
52. Suvda suzish, o'milish.
53. She'r yodlash va ifodali o'qish.
54. Matematik misollar yechish va hisob-kitob qilish.
55. Zamonaviy soch turmaklarini o'ylab topish.
56. Bichish, tikish.
57. Daryoda yuklarni tashish.
58. Akkumlyator tuzatish.
59. Bino poydevorini quyish.
60. O'rin-joy, xonadonni yig'ishtiruvchi robot yaratish.
61. Bemorlarni parvarishlash.

62. Mashinada paxta terish.
63. Bolalar va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini tashkil etish.
64. Latifa aytish va eshitish.
65. Latifa aytish va eshitish. hujjatlar bilan ishlash.
66. Dazmol, kir yuvish mashinasi kabilarni tuzatish.
67. Mebel yasash.
68. Poyezdda sayohat qilish.
69. Pochta aloqasi operatori.
70. Oyna qirqish.
71. Liftda qavatga ko‘tarilish.
72. Nuqsonli bolalarga yordam berish.
73. O‘simlik va hayvonlarni parvarishlash.
74. Sport musobaqalini tashkil qilish.
75. Loydan qo‘g‘irchoq yasash.
76. Tejamkorlik.
77. Shirinliklar tayyorlash.
78. Yer osti boyliklarini izlab topish.
79. Avtopoygalarni tomosha qilish.
80. Kuygan lampochkalarni yangilash.
81. Devorgagulqog‘oz yopishtirish, bo‘yash.
82. Elektr-gaz payvandlash ishlari bilan shug‘ullanish.
83. Dezinfeksiyalash.
84. Akvariumda baliq boqish.
85. Bolalarga o‘qish-yozishni o‘rgatish.
86. Afisha va e‘lonlar chizish.
87. Bozordagi narx navoni kuzatib borish.
88. Dasturxon tuzash, mehmon kutish.

### Javoblar varaqasi

Savollarga javob berib bo‘lganingizdan so‘ng har bir qatordagi savolga berilgan javob ballari yig‘indisini 2-ustunga yozing. Yig‘ilgan ballarning eng yuqorisiga mos kelgan sohaga oid kasblarga sizdagi qiziqish va moyillik darajasi yuqori.



Cavol raqami	Ballar yig'indisi	Kasb guruhi	Sohalar
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
1 12 23 34 45 56 67 78		1-guruh	Sanoat
		2-guruh	Transport
2 13 24 35 46 57 68 79		3-guruh	Aloqa
		4-guruh	Qurilish
3 14 25 36 47 58 69 80		5-guruh	Uy-joy kommunal xo'jalik
		6-guruh	Tibbiyot
4 15 26 37 48 59 70 81		7-guruh	Qishloq va o'rmon xo'jaligi
		8-guruh	Pedagogika
5 16 27 38 49 60 71 82		9-guruh	San'at va madaniyat
		10-guruh	Ijtimoiy-iqtisodiy soha
6 17 28 39 50 61 72 83		11-guruh	Savdo va umumiy ovqatlanish
7 18 29 40 51 62 73 84 8 19 30 41 52 63 74 85			
9 20 31 42 53 64 75 86			
10 21 32 43 54 65 76 87			
11 22 33 44 55 66 77 88			

Jadval 1

1-guruh. Sanoat.

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo

va yengil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari, sheningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

#### 2-guruh. Transport.

Sizda avtomobillarni boshqarish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga moyillik yuqori. Shu bois siz transport vositalari bilan ishlaydigan mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarda yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishidagi akademik litseylarda tahsil olishingiz mumkin.

#### 3-guruh. Aloqa.

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikasiya, radio, pochta, elektron uskunalarni boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi akademik litseylarga o'qishga borishingiz mumkin.

#### 4-guruh. Qurilish.

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish yuqori. Sizga qurilish avtomobillari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton mahsulotlari va konstruksiyalar, duradgorlik kabi kasblar bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishni tavsiya etamiz.

#### 5-guruh. Uy-joy, kommunal xo'jalik.

Sizda suv, gaz ta'minoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga qiziqish baland.

Siz uy-joy va kommunal xo'jalik sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejida yoki aniq fanlar yo'nalishidagi akademik litseylarda ta'lim olishingiz mumkin.

#### 6-guruh. Tibbiyot.

Sizning sogʻliqni saqlash sohasining umumiy amaliyot, stomatologiya, ortopediya, farmasiya, tibbiy optika va laboratoriya tashxisi sohalaridagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyot yoʻnalishidagi kasb-hunar kollejlari yoki kimyo va biologiyaga ixtisoslashgan akademik litseylarda oʻqishingiz maqsadga muvofiq boʻladi.

#### 7-guruh. Qishloq va oʻrmon xoʻjaligi.

Siz qishloq hoʻjaligi va oʻsimlikshunoslik bilan bogʻliq boʻlgan kasblar yoqadi. Sizga qishloq xoʻjaligi texnikalarini boshqarish. Taʼmirlash va xizmat koʻrsatish, gidromeliorasiya, fermer xoʻjaligi, agronomiya, zootexnika, oʻsimlikshunoslik, chorvachilik sohaları oʻqitiladigan yoki biologiya fani chuqur oʻrgatiladigan akademik litseylarda tahsil olishni tavsiya etamiz.

#### 8-guruh. Pedagogika.

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qoʻllab-quvvatlashga bogʻliq kasblarga moyillik kuchli. Siz m aktabgacha taʼlim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, boshlangʻich sinflarda sport va musiqa taʼlimiga oid kasblarga tayyorlaydigan kab-hunar kollejlarida taʼlim olishingiz mumkin.

#### 9-guruh. Sanʼat va madaniyat.

Sizni tasviriy sanʼat, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniya oqartuv ishlari qiziqtiradi.

Sizga madaniyat va sanʼat yoʻnalishidagi kasblarga tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlarida taʼlim olish tavsiya etiladi.

#### 10-guruh. Ijtimoiy-iqtisodiy soha.

Sizda moliya, buxgalteriya, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yongʻin xavfsizligi, avtonazorat, ijtimoiy taʼminot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish yuqori.


Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarda va aniq fanlar yoki ijtimoiy yoʻnalishdagi akademik litseyda taʼlim olishni tavsiya etamiz.

11-guruh. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish.

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat koʻrsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni taʼmirlash, maishiy gaz va mashinalarni taʼmirlash, kino-fototexnika xizmatlari koʻrsatish sohalariga qiziqish yuqori.

Sizga savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat koʻrsatish boʻyicha kasblarga tayyorlovchi kasb-hunar kolleji yoki aniq fanlar akademik litseylarida oʻqish tavsiya etiladi.

Oʻquvchilar qobiliyati esa qiziqish va mayllar bilan mahkam bogʻliq boʻladi hamda odamning kasbga layoqatini koʻrsatuvchi belgilarning ajralmas qismi hisoblanadi.



**4-Rasm. Kasb tanlash**

Qiziqish, mayl va qobiliyatni uzviy bogʻliqligi va kasb tanlashga taʼsirini koʻrib chiqamiz. Kishining salomatligi maʼlum bir kasb talablariga muvofiq boʻlishini mutaxassislar (psixolog, vrach, pedagog) tavsifi yordamida aniqlandi. Bu muolajani kasb tanlashdan avval, yaʼni 8-9 sinflarda amalga oshirish kerak va mutahassislar tavsiyasiga koʻra kasbni aniqlash lozim.

Bu borada sizlarga maktab sharoitidan kelib chiqqan holatda har bir fan o'qituvchilari eng avvalo, o'z fanlari mazmunidagi kasblar to'g'risidagi dastlabki tushunchalar berishga intiladilar. Matematika o'qituvchilari eng avvalo, o'z kasbi matematika o'qituvchisi, informatika kasbi, iqtisodchi, moliya xodimlari, qayd etilgan tarmoqlardagi boshqa kasb va mutaxassislar to'g'risidagi axborotlar bilan matematika bilim va ko'nikmalar negizida shakllanadigan boshqa kasblarni tanlashga tavsiya etishga zamin bo'ladi. Fizika fanida o'qituvchi o'z kasbi bilan bir qatorda elektr, atom, elektron, radar, mexanika, lokator, radio va boshqa fizika bo'limlari tarmoqlari bilan uzviyligi mavjud kasblar to'g'risida ma'lumotlar negizida shu sohalarida ishlaydigan kasb va mutaxassislar tarmoqlari bilan tanishtirishga barcha ma'lumotlarni darslik, televizor, internet, audio-video vositalardan foydalanish hamda mazkur kasblar bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari maqsadlashtirilgan ekskursiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni o'z kasbi hamda shu kasb negizida uyg'unlashgan botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, o'simlikshunoslik va boshqa predmetlar, qishloq xo'jalik sohasining dehqonchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, bog'dorchilik, paxtachilik, bug'doychilik, urug'chilik va shunga bog'langan boshqa o'nlab tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan yuzlab kasb va mutaxassisliklar bilan olib boriladigan kasb tanlash ishlari turli shakl va metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga o'z kelajagini tanlashga imkoniyatlar mavjuddir.

Shunday qilib maktab sharoitidan va imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilar 9 yil mobaynida 20 dan ortiq fanlarni o'zlashtirish jarayonida har biridan kamida 25 kasb va mutaxassislik faoliyatlarini o'rganib, unda:

a) umumiy yondoshuv; b) integrasiyalash holatida; v) bevosita tanlangan kasbi yuzasidan bitta-ikkitasiga tanlangan kasb bo'yicha amaliy ish, faoliyat ko'rsatgan holda mehrni uyg'otishga imkoniyatlar yaratilgan.


Shuni ham ta'kidlash zarurki, barcha yigit-qizlar, o'quv predmetlari qatorida alohida o'z mavqeiga ega bo'lgan murakkab predmetlardan biri – bu mehnat

ta'limi fanidir. Mazkur fanni o'zlashtirgan o'quvchiga xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga xos kasblar yuzasidan materiallarni, asbob-uskunalar, mashina va moslamalarni nafaqat o'rganishi, ulardan foydalanish hamda ular yordamida unumli foydali maxsulotlar tayyorlashni uddalay olganlari 70-80 foiz maktab bitiruvchilari tashkil topganlar. Undan tashqari, maktab bitiruvchilari qayd etilgan asoslarga tayanib o'zlari sevgan kasblar tanlaganlar. Undaqa maktab bitiruvchilari yil sayin oshib o'zlarini o'rni zamonaviy kollejlarda o'qishni davom etib "kichik mutaxassis" darajali kasb egasi bo'lmoqdalar.

Shunday texnologiyalar asosida 6-7 sinflar bo'yicha materiallarni o'zlashtirgandan so'ng, 8-9 sinflardagi materiallar 5-sitnfdan tanlab olingan yo'nalishda ishlab chiqarish sohasini hamda shu sohadagi kasblar misolida ma'lumotlarni to'plab o'rganish maqsadga muvofiqdir.


### 2.3. O'rta umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi jarayonida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish metodik ta'minoti

O'qituvchi o'qitish turlari va o'quv mashg'ulotlar turlaridan kelib chiqqan xolda o'quv mashg'ulotning o'qitish texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi.



5-rasm. O'qitish turlari

Yuqoridagi rasmdan xulos qilishimiz mumkinki mehnat ta'limi darslari ko'proq ma'po'za va amaliy mashg'ulot shaklida o'tkaziladi va bunday sharoitda quyidagi nazariy talablar majud.



6-rasm. Nazariy mashg'ulot turlari

Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki o'quvchilarda nazariy bilimlarni shakllantirish jarayonida Umumiy urta ta'lim maktabida mehnat ta'limi fanini

ukitishning maxsadi-ukuvchilarni akliy va jismoniy mexnat turlari, jarayonlari xamda kasblar bilan tanishtirish, ularda dastlabki mexnat kunikmalari va malakalarini, mexnatga kizikish va mexnatsevarlikni shakllantirish, ularni mexnat kasblarni kadrlashga, ularning axamiyatini tushunishga urgatish xamda kasb tanlashga tayyorlash orkali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirishdan iborat.

Ushbu maxsadni amalga oshirish uchun kuyidagi ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarish lozim buladi.


**Ta'limiy vazifa** -ukuvchilarning barkamol shaxslar bulib shakllanishlari uchun ularga mexnat jarayonlari, kasblar, umumiy texnologiya, texnika va ishlab chikarishning ilmiy asoslarini urganish, ularni kasb tanlashga yunaltirish, kamida uchta kasb bilan dastlabki tanishtirish orkali ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish ularning kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish va kasb-xunar kolledjlarida ta'lim olishga tayyorlashdan iborat.

**Tarbiyaviy vazifa**- ukuvchilarning mexnat kunikmalarini shakllantirish jarayonida mexnat va kasbga munasabatlarida yukori axlokiy sifatlarini, mexnatsevarlik, vatanparvarlik va tadbirkorlikni rivojlantirib borishdan iborat.

**Rivojlantiruvchi vazifa**- mexnat ta'limi mashgulotlari jarayonida ukuvchilarga akliy, jismoniy, axlokiy, badiiy-estetik tarbiya va ta'lim berish, kasbgacha tayyorgarliklarini amalga oshirish orkali ularning barkamal shaxslar bulib yetishishlariga yordam berishdan iborat.

Mexnat ta'limi fanining mazmuni shartli ravishda uchga, ya'ni mexnat ta'limi tayyorgarligi, kasblar buyicha tayyorgarlik va kasbgacha maxsus tayyorgarlik kismlariga bulinadi. Bu kismlar xar bir dars va mashgulotlarning tarkibiga singib ketgan bulib, ularning ukituvchilar va uslubchilar tomonidan ilmiy uslubiy nuktai nazardan xisobga olingan xolda taxlil kilib borilishi mexnat ta'limi mashgulotlarining anik maksadga yunaltirilgan bulishini ta'minlaydi.





**7-rasm. Amaliy mashg'ulot turlari**

Амалий машуғулот жараёнида ўқувчиларни фаолиятининг ushbu ko'rsatkichlari asosida o'quvchilarni ijodkor guruhlarga tanlab olishda maxsus testlar, anketa-so'rovnomalari, intervyu hamda suhbat metodlaridan samarali foydalanish mumkin.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, tabaqalashtirish metodi yordamida o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini tashkillashtirishda guruh o'quvchilari soni va uning tarkibi muhim ahamiyat kasb etadi. Амалий машуғулот давомида amalga oshirilgan ishlarning tahliliga asosan sohasida biz guruh a'zolari sonini 10-12

o`quvchidan iborat bo`lishi tavsiya qilamiz. Bunda guruh a`zolarining vazifalariga ko`ra tarkibi quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi:

➤ **yetakchi** (lider) – guruh faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi;

➤ **g`oya beruvchi**– guruh oldiga qo`yilgan ijodkorlik masalalarini hal qilish uchun g,,oyalar ishlab chiqadi;

➤ **tadbiq qiluvchi**– taklif etilgan g,,oyalarni aniqlashtirish hamda amalga oshirish yo`llarini taklif qilishda faollik ko`rsatadi;

➤ **bilimdon**- taklif etilgan g,,oyalarni amalga oshirish uchun guruh a`zolarining bilimlarini umumlashtirib, muammo yechimini taklif qiladi;

➤ **hissiy barqarorlashtiruvchi**- guruhdagi shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtiradi va ijodkorlik uchun qulay psixologik muhit yaratadi;

➤ **tanqidchi**– ishlab chiqiladigan ijodkorlik g,,oyalarga o`zining tanqidiy munosabatini bildirib, ularning mukammallik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan ko`rsatkichlar asosida tashkil qilingan ijodkor guruh ishini dars va darsdan tashqari mashg,,ulotlar jarayonida tabaqalashtirilgan holda samarali tashkil etish yo`llarini belgilab olish o`ziga xos xususiyatlarga ega. Namuna tariqasida, shakllantirilgan guruh faoliyatini mehnat ta`limi darslarida tabaqalashtirish holda tashkil qilishning quyidagi ketma-ketligini taklif qilish mumkin:


№	Darsning bosqichlari	Vaqt
1	Tashkiliy qism	2 min.
2	Aqliy hujum. O`quvchilar motivatsiyasini uyg,,otish	5 min.
3	O`quvchilarni tabaqalashtirish asosida guruhlarga taqsimlash	10 min.
4	Amaliy mashg,,ulot	20 min.
5	Darsning yakuni va uyga topshiriq	5 min.
6	Ish o`rnini yig,,ishtirish	3 min.

Amaliy mashg`ulotni tashkil qilishda mashg,,ulotlarning aniq maqsadli tashkil qilinmasligi, o`quvchilarning turli tadbirlarga jalb etilishi ulardagi qiziqishning so`nishiga va guruh ishining barbod bo`lishiga olib kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun darsdan tashqari mashg,,ulotlarning muhim shakllari

bo'lgan to'garaklar ishi, ekskursiyalar, ko'rik-tanlovlar, turli mavzulardagi uchrashuv va suhbatlarni tashkil qilishda o'quvchilar ijodkorlik faoliyatini rivojlantirib borish uchun maxsus ishlab chiqilgan tadbirlar rejasi ish olib borish talab etiladi. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda aqliy hujum metodini pedagogik texnologiyasining texnologik chizmasi 7-rasmda keltirilgan.

## **KICHIK GURUHLARDA HAMKORLIKDA O'QITISH PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIGA KIRISH**

Guruxlarda ishlash – bu o'quv topshiriq'ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o'quv jarayonida kichik guruxlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o'ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta'limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi topshiriq – natija emas balki, gurux ichidagi hamkorlik jarayonidir.





# KICHIK GURUHLARDA HAMKORLIKDA O'QISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK SXEMASI

## I. Tashkiliy bosqich

*Texnologik ishlar*

*Ta'lim beruvchi faoliyati*





## Yo'riqnomaga talab:




### *Yo'riqnomaga quyidagi xususiyatlarda ega bo'lishi kerak:*

- topshiriqni aniq ifodalanishini;
- kutilayotgan natijalarga aniq yo'naltirish;
- tajribada sinalgan bo'lishi kerak: bu yo'riqnomani avval o'zi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilish kerak;

8. Ta'lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash

(1) O'quv guruhida xayrihona munosabat muhitini yaratadi: faqat shunda ular hamkoriy ishni samarali va ijodiy bajaradilar.

(2) ta'lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish




## Guruhda ishlash qoidalari:

- har kim o'z o'rtoqlari nutqini xushmuomalalik bilan tinglashi zarur;
- har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas'uliyatli yondashishi zarur;
- har kim yordamga muhtoj bo'lganda uni so'rashi zarur;
- har kimdan yordam so'ralsa, yordam qilishi zarur;
- har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi zarur.
- har kim aniq tushunishi kerak:
  - boshqalarga yordam berib, o'zimiz tushunamiz!
  - biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho'kib ketamiz!

9. Guruhlarga bo'lish yo'lini tanlash

Kichik guruhlariga birlashtirish yo'lini tanlaydi. Ta'lim oluvchilarni kim guruhlariga bo'lishini aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o'z qiziqishlari bo'yicha tanlashlari mumkin.




10. Guruh ish joyini tayyorlash

Stol va o'rindiqlar shunday joylashtiriladiki, bunda:

- ta'lim buruvchi auditoriyada erkin harakatlanishi;
- har bir guruh a'zosi bir joyda bo'lishlari va bir-birlarini ko'rishlari va eshitishlari kerak;
- zarur o'quv qo'llanmalar barchaga etarli bo'lishi kerak.


## Guruhlarni joylashtirishning eng maqbul chizmasi




## II. Asosiy bosqich


### Texnologik ishlar

### Ta'lim beruvchi faoliyati





**III. Nazorat-yakuniy bosqich**



Yuqoridagi texnologik kartada amaldiy mashg'ulot darslarida ushbu metodik orqali mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishda kichik guruhlarda hamkorlikda o'qish pedagogik texnologiyasi taqdim etilgan:

1) Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qish pedagogik texnologiyasi (**I-qism**);

2) Trening ishtirokchilari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o'qish pedagogik texnologiyalari (**II-qism**);

Demak taqdim etilgan pedagogik texnologiyalari mukammallikdan hali yiroqda - o'qituvchilar ular uchun yangi bo'lgan o'qitish texnologiyalarini egallash bo'yicha yo'l boshidalar.

### **Kasb tanlash varaqasi.**

1. Ism va familiyangiz, tug'ilgan yilingiz.....

2. Kim bo'lishni hohlaysiz va nima uchun?.....

3. Jismoniy ma'lumotlar: *bo'yingiz....(og'irligingiz...,zaif sezgi organlaringiz (tagi chizilsin): ko'rish, eshitish, xid bilish, ta'm bilish, paypaslab xis etish, muvozanat va boshqa zaif organlaringiz (tagi chizilsin va yozib to'ldirilsin): o'pka, yurak, mushaklar, qo'llar, oyoqlar.*



*Keyingi 4 yil ichida boshdan kechirgan ko'ngilsiz voqealar va og'ir kasalliklar, ularning oqibatlari.....*

4. Qiziqish va maylingiz:

Qaysi fanlarni yoqtirasiz?.....

Qaysi fanlarni yoqtirmaysiz?.....

Bo'sh vaqtdagi mashg'ulotingiz.....

O'quv yili davomida nechta kitob o'qidingiz?.....

Qaysi to'garakda qatnashdingiz?.....

5. Kuzatuvchanlik, fikrlash va harakatning aniqligi, boshqalarni ishontira bilish, gapga-chechanlik, sabr-bardoshlilik va boshqa kabi xususiyatlaringiz (tagi chizilsin va yozib to'ldirilsin)

.....

6. Eng ma'qul ko'rgan mashg'ulotingiz (tagi chizilsin va yozib to'ldirilsin):

odamlar bilan hamkorlik (buyumlar yasash); jamoada yoki yakka holda ishlash; o'tirib ishlash, tinch holatda ishlash; ko'tarinkilikni, qiziqishni, kurashishni talab qiluvchi ishlarni bajarish; javobgarliksiz yoki javobgarli, tez harakat qilishni yoki sekin harakat qilishni taqazo etuvchi, tabiiy sharoitda, bino ichida bajariladigan ishlar, jismoniy kuch sarflashni talab qiladigan yoki talab qilmaydigan ishlar....

7. O'z maktabingizda yoki yaqin atrofdagi maktabning IX sinfida qanday kasb va ixtisoslikni o'rganishni hohlaysiz?

8. Qaysi kasb o'zining hohlagan ixtisosga eng yaqin?

9. Qaysi kasbni tanlashga qaror qildingiz va nima uchun?....

10. Tanlangan kasbingiz bo'yicha qo'shimcha nimalarni bilishni hohlaysiz?

11. Kasbni tanlashingizga ota-onangiz qanday qaraydi?

12. O'qish uchun qaysi Oliy o'quv yurtiga kirishni hohlaysiz?

13. IX sinfni tamomlagach ishlash uchun qayerga borasiz yoki qayerda o'qiysiz?

14. Boshqa qaysi kasblarni mamnuniyat bilan o'rganar edingiz?

15. Qaysi kasb yoki ixtisoslikni butunlay yoqtirmaysiz?

16. Kelajakda oʻrta maktabni yoki Oliy oʻquv yurtini bitirgandan yoki tanlagan kasbingizni oʻrganib olgandan keyingi rejalariniz.....

---

(maktab oʻquvchining ismi sharifi)


Sinf rahbarining izoh va xulosalari .....

.....  
.....

200 yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

Oʻquvchini oʻz imkonini toʻgʻri baholash, uni tanlagan kasbga moyiligini, aqliy va psixologik qobiliyatlari qay darajada mos ekanligini asta koʻrsatish lozim.

Oʻquvchining kasbiy moyiligini diagnostik konsultasiyalarda ham aniqlash mumkin, masalan Eyler aylanalari yordamida:



### 1-Diagramma Eyler aylanalari

Bu yerda 1-oʻquvchi xoxishi, 2-oʻquvchini va 3-tanlangan kasbni jamiyatga kerakligi.

- A) oʻquvchini xoxishi va jamiyatni ehtiyojini mosligi;
- B) oʻquvchi imkoni va jamiyatni ehtiyojini mosligi;
- V) kasb tanlashning optimal zonasi.

Oʻquvchilarni mehnat taʼlimi jarayonida kasb tanlashga yoʻllashda ushbu uylor aylanmasini dars jarayonlarida doimiy qoʻllashi maqsadga muvofiqdir.



## XULOSA

Xulosalarimiz shundan iboratki bitiruv malkaviy ishini tayyorlash jarayonida oʻrta umumtaʼlim maktablarida mehnat taʼlimi daraslari jarayonida oʻquvchilarni kasb tanlashga yoʻllash bugungi kundagi eng dolzarb masalalar qatoriga kirishiga ishonch horsil qildik. Bunday xulosaga kelishdan maqsad oʻrta umumtaʼlim maktablari uchun mehnat taʼlimi oʻqituvchisi oʻquvchilarni kasb hunarga yoʻllashda asosiy hal qiluvchi vosita sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Vazirlar Mahkamasining oʻsib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash borasidagi Farmon va Qarorlarining qabul qilinishi yoshlar tarbiyasiga mutasaddi boʻlgan davlat idoralari va jamoat tashkilotlarining oldiga jamiyatimiz kelajagi boʻlgan farzandlarimizni har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalashdek masʼuliyatli vazifalarni qoʻymoqda.

Umuman olganda, mehnat taʼlimi darslari va oʻrta umumtaʼlim maktablarida mavjud kasb-hunar tanlash tizimi ishlarining qayta koʻrib chiqib ularni rekonstruksiya qilinishi tashkil etildi.

Bu borada koʻrilayotgan barcha chora-tadbirlarga karamasdan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining oʻqituvchilar tarkibini tayyorlash sifati va ularning malakasini oshirish masalasiga aloxida eʼtiborni qaratmoqda.

**Ushbu muammolarni** hal etish hamda shu asosda mehnat taʼlimi jarayonida taʼlim sifati va samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz:

- Taʼlim muassasalari mavjud mehnat taʼlimi oʻquv binolarining taʼmirlanganlik holati, moddiy-texnik bazasi va mavjud jihozlarni toʻliq inventarizatsiyadan oʻtkazish;

- ulardan samarali foydalanish, saqlash va nazorat qilishni tizimli yoʻlga qoʻyish;

- taʼlim muassasalariga yirik ishlab chiqarish korxonalarini va ish beruvchi tashkilotlarni homiy sifatida biriktirish;

- oʻrta umumtaʼlim maktablarining mehnat (texnologiya) fanidan pedagog-xodimlarning savodxonligini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- oʻrta umumtaʼlim maktablarining mehnat (texnologiya) fanidan oʻqitiladigan darslarda internet tizimi va lokal tarmoqdan foylanish holatini muntazam nazoratga olish;

- Taʼlim muassasalarining yangi avlod oʻquv adabiyotlariga boʻlgan ehtiyojlarini real oʻrganish va shu asosda monitoring tashkil etish;

- axborot-resurs markazlarida fanlar eʼtibor asosiy adabiyotlarning elektron variantlarini yaratish;

- zarur adabiyotlarni markazlashgan tarzda sotib olishni tashkillash;

- oliy taʼlim muassasalari professor-oʻqituvchilari bilan hamkorlikda asosiy adabiyotlar oʻrnini bosuvchi oʻquv-uslubiy qoʻllanmalar yaratishning qisqa va uzoq muddatli rejasini ishlab chiqish, ijrosini taʼminlash;

- bakalavriat yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklari pedagogik amaliyotlarini oʻrta umumtaʼlim maktablarida va ishlab chiqarish korxonalarida oʻtashlarini tizimli yoʻlga qoʻyish orqali kadrlarga boʻlgan ehtiyojni qisman qondirish;

- taʼlim, fan va ishlab chiqarish samarali integrallashuvini taʼminlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

Yuqorida keltirilgan xulosalarimiz ushbu bitiriv malakaviy ishining mazumuni boyitishga xizmat qiladi deb hisoblayman.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori.– T.: “Sharq” nashriyot–matbaa konserni, 1997.
2. Avazboyeva O.I., Isyanov R.G., Odilboyev X. Mehnat ta’limi uslubiyotidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. Toshkent, TDPU. 1995.
3. Davlatov K. Mehnat va kasb ta’limi tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1992.
4. Davlatov K. Mehnat va kasb ta’limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar: Pedagogika instituti o‘quvchilari uchun qo‘llanma. – T.: «O‘qituvchi», 1995.
5. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH. Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar (Metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2002.
6. Sharipov Sh.S. va b. Pedagogik amaliyot (metodik qo‘llanma). T.: TDPU, 2006.
7. Boltaboyev S.A., Magdiyev O.SH., Sattorov V.N., Avazboyev O.I. Mehnat va kasb ta’limi metodikasidan o‘quv mashg‘ulotlari. Uslubiy qo‘llanma. 2002.
8. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” 1997-yil  
Internet saytlari
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot markazi sayti: [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
10. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Hokimiyati portali: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
11. Ziyonet
12. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
13. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
14. [www.dsmi.uz](http://www.dsmi.uz)